

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

MIRZAQULOV DOVRONBEK OMATJONOVICH

**YAQIN GALAKTIKALARDAGI O'TAYANGI YULDUZLAR
CHAQNASHLARINING MONITORING TADQIQOTLARI**

01.03.01 – Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Тошкент - 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам УДК 524.35**

Mirzaqulov Dovronbek Omatjonovich

Yaqin galaktikalardagi o'tayangi yulduzlar chaqnashlarining monitoring
tadqiqotlari..... 3

Мирзакулов Довронбек Оматжонович

Мониторинговые исследования вспышек сверхновых звезд в
близлежащих галактиках..... 21

Mirzaqulov Dovronbek Omatjonovich

Monitoring studies of supernova explosions in nearby galaxies 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

MIRZAQULOV DOVRONBEK OMATJONOVICH

**YAQIN GALAKTIKALARDAGI O'TAYANGI YULDUZLAR
CHAQNASHLARINING MONITORING TADQIQOTLARI**

01.03.01 – Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Тошкент - 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/FM844 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.astrin.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Shuhrat Abdumannapovich,
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Askar Baxtiyarovich Abdikamalov,
fizika-matematika fanlari doktori

Dmitriy Yurievich Tsvetkov,
fizika-matematika fanlari nomzodi, Shternberg davlat Astronomiya instituti (Rossiya)

Yetakchi tashkilot:

Fesenkov nomidagi Astrofizika Instituti,
Qozog'iston

Dissertatsiya himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 29 sen soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, Astronomiya instituti. Tel. (+99871) 235-81-02; faks (+99871) 234-48-67; e-mail: info@astrin.uz).

Dissertatsiya bilan Astronomiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy, O'zR FA AI. Tel. (+99871) 235-81-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "15" sen kuni tarqatildi.
(2023-yil "15" sen dagi 1 – raqamli reestr bayonnomasi)



D.Sh. Fazilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

I.A. Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi f.-m.f.n., katta ilmiy xodim

A.B. Abdikamalov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda o'tayangi yulduzlarning erta chaqnash fazasida kuzatilayotgan jarayonlarni o'rganish astrofizikaning eng dolzarb muammolaridan biridir. O'tayangi yulduzni o'rganish galaktikalar dinamikasi va ikkilamchi yulduz hosil bo'lish jarayonlarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ulardan kosmologik masofalarni aniqlashda standart mayoq sifatida foydalanish mumkin. O'tayangi yulduzlarni o'rganish orqali Olamning kengayishi va qorong'i energiya mavjudligi to'g'risidagi tushunchalarni yanada aniq baholash imkonini beradi (Riess va boshq., 1998; Perlmutter va boshq., 1999). Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'tayangi yulduzlarning yaxshi astrofizikaga ega bo'lgan va yuqori sifatli monitoring kuzatuvlarini o'tkazish vazifasi, shuningdek, kuzatuv ma'lumotlarini tahlil qilishda zamonaviy usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda Supernova Cosmology Project, Sloan Supernova Survey (SSS), ROTSE (Supernova Verification Project), Palomar Transient Factory (PTF), Pan-Starrs kabi bir nechta o'tayangi yulduzlarni o'rganish loyihalari mavjud bo'lib ularda bir necha yuzlab o'tayangi yulduzlar kashf etilmoqda. 2024 yilda ishga tushishi kutilayotgan LSST loyihasi bu ochilishlar sonining ortishiga xizmat qilishi kutilmoqda. Bunday sondagi ob'yektlarni kuzatuvlar tashkil etish asosida ulardagi fizik jarayonlarni o'ranish uchun doimiy monitoring qilish talab etiladi. Uzlaksiz kuzatuvlar olib borishda bir nechta observatoriyalar va teleskoplar ishini tashkil etish va optimallashtirish dasturini yaratish, turli observatoriyalarda olingan katta hajmdagi CCD ma'lumotlarini standartlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilishda zamonaviy usullarni qo'llash zarur.

O'zbekistonda ko'p jihatdan o'tayangi yulduzlarning uzoq muddatli kuzatish uchun asos bo'ladigan va shu orqali astrofizikaning dolzarb muammolaridan biri koinot kengayishi, yulduzlar payo bo'lishi va evolyutsiyasini o'rganish sohasidagi fundamental tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son qarori bilan ilm-fanning istiqbolli va yangi yo'nalishlarini shu jumladan astronomiya fanining ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish va mamlakatimizning xalqaro reytinglarda o'rnini mustahkamlash, dunyoning yetakchi ilmiy dargohlari bilan hamkorlik o'rnatish, shu orqali O'zbekistonning ilmiy salohiyatini rivojlantirish vazifasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti Maydanak astronomik observatoriyasi (MAO) Yevrosiyo qit'asining o'rtasida joylashgan noyob astrofizik va yaxshi joylashuvga ega. Respublikamizda fundamental tadqiqotlarga e'tibor va MAO ning joylashuvi tufayli Xitoy, Koreya, Yaponiya, Italiya, AQSH kabi mamlakatlar va boshqa astronomik markazlar bilan hamkorlikda turli xil astronomik tadqiqotlar va xalqaro loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Jumladan, ushbu tadqiqot ishi ham dunyoning yetakchi ilmiy darohlari Seul milliy universiteti va Tsinghua Universiteti bilan hamkorlikda olib borilgan izlanishlar natijasi hisoblanadi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi № PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PP-5032-sonli "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda berilgan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlanishining II-"Energetika, energiya va resurs tejamkorligi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda bir qator chet ellik, yevropalik, osiyolik va amerikalik olimlarning tadqiqot guruhlar, jumladan AQShning Kaliforniya texnologiyalari universitetidan A.Filippenko, Rossiyaning Moskva davlat universiteti qoshidagi P.K.Sternberg davlat astronomik institutidan, D. Yu.Tsvetkov va boshqalar, Xitoyning Tsingxua universitetidan Wang Xiaofeng, koreyaning Seul milliy universitetidan Myunshin Im, angliyaning Birmingem universitetidan Mett Nikol, Sidney universitetidan J. R. Kallingem va boshqalar o'ta yangi yulduzlarni kuzatish, turli xil tadqiqotlarni tashkil etish va nazariy tadqiqotlar ustida katta hajmdagi ishlarni amalga oshirdilar. Ammo bu tadqiqot ishi bizning mamlakatimizda bu astronomik soha bo'yicha birinchi dissertatsiya ishi hisoblanadi.

Hozirda o'tayangi yulduzning o'zi ham, ularning chaqnashdan oldingi (nasl-nasab) yulduzlarni ham o'rganishda nazariy va eksperimental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida, o'tayangi yulduz portlashlarini nazariy jihatdan bir necha yo'llar bilan tasvirlash mumkinligi aniqlandi (Zhu va boshq., 2016). Ammo ta'kidlash kerakki, o'tayangi yulduz sifatida portlaydigan yirik yulduzlarning xossalari o'rganilganlik darajasi pastligicha qolmoqda (Langer N 2012; Smartt S J 2015; Antoniadis va boshq. 2020; Soker N. 2023).

ZAQ (Zaryadli Aloqa Qurilmasi) qabul qiluvchilarni astronomiyada keng qo'llanishining boshlanishi kuzatuv materiallarining miqdori va sifatini sezilarli darajada oshirishga imkon yaratdi. Zamonaviy uskunalar ilgari olib bo'lmaydigan ob'yektlar uchun spektrogrammalarni olish, spektral chiziqlarning intensivligi va kengligini aniqroq aniqlash, shuningdek, zaif chiziqlarni qayd qilish imkonini yaratish bilan birgalikda juda katta hajmda ma'lumotlar bazasini shakllantirib, ma'lumotlar bazasini tahlil va talqin qilish muammosini yuzaga keltirmoqda.

O'tayangi yulduzlarning chaqnashidan hosil bo'lgan portlashdan keyingi nurlanish oqimlarini qayd qilish va zarba to'liqini yulduzning sirt qatlamlariga yetib kelganidan keyingi dastlabki daqiqalaridan to bir necha soat o'tgungacha bo'lgan elektromagnit nurlanish va ularning qizdirishi "ota" yulduz va undagi o'tayangi yulduz bo'lishdan oldingi bosqichda sodir bo'ladigan jarayonlar haqida muhim ma'lumot beradi (Falk, S. W. & Arnett, W. D., 1977; Ensmann, L. & Burrows, A., 1992; Matzner, C. D. & McKee, C. F., 1999; Tominaga, N. va boshq., 2011, Leung va boshq., 2021; Subrayan va boshq., 2023). Biroq, bugungi kunga qadar hech kim o'tayangi yulduz portlashning ushbu qisqa boshlang'ich bosqichidagi "birinchi nurini" optik diapazonda ko'rishga va qayd etishishga muvaffaq bo'lmadi (Morokuma va boshq. 2014; Förster, F. va boshq., 2016; Tanaka, M. va

boshq., 2016; Piro, Antoni va boshq., 2021; Matsumoto, T. & Metzger, B. 2022.). Ushbu muammoni o'rganish tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, kashf etilgan o'tayangi yulduzlar soni yildan-yilga oshib borayotganiga qaramay, bolometrik yorqinlik egri chiziqlari statistikasi hali jarayonning umumiy qonunlarini aniqlash uchun yetarli emas, masalan, o'tayangi yulduzning batafsil tasnifi uchun (Gronow va boshq. 2021; Burhanudin&Maund, 2023; Vinkó va boshq., 2023). Shuning uchun o'tayangi yulduzlarning bir nechta diapazonlarda kuzatuvlari yuqoridagi muammolarni o'rganishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining VA-FA-F-2-007 "Galaktikalar va ularning to'dalarining fizik, dinamik va linzalanish xossalarini ko'p rangli kuzatuvlar asosida o'rganish"; F.4-18 "o'tayangi yulduzlarni yaqin galaktikalarning monitoring kuzatuvlari usulida tadqiq etish" ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalqaro IMSNG dasturi doirasida Maydanak astronomik observatoriyasi va dasturning boshqa observatoriyalari teleskoplarida olingan kuzatuv ma'lumotlari asosida yaqin galaktikalarda sodir bo'layotgan o'tayangi yulduz portlashlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Maydanak observatoriyasida tanlangan yaqin galaktikalarning ko'p rangli fotometrik kuzatishlarini olib borish.

Kuzatilgan obyektlarning faol darajasidagi o'zgarishlarni monitoringi uchun kuzatuvlarning tezkor usullarini ishlab chiqish.

Yaqin galaktikalardagi o'tayangi yulduz portlashlarining kuzatuv ma'lumotlari ko'p rangli (UBVRI) bankini (katalog, ma'lumotlar bazasi) yaratish.

Olingan fotometrik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil va talqin qilish.

Tadqiqot obyekti tanlangan yaqin galaktikalarda paydo bo'lgan o'tayangi yulduzlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti - yorqinlik egri chiziqlarida namoyon bo'ladigan o'tayangi yulduzdagi fizik jarayonlar, shuningdek, spektri asosida o'rganiladigan o'tayangi yulduzning kimyoviy tarkibi.

Tadqiqot usullari. O'tayangi yulduzning kuzatishlari; yuqori vaqt aniqligiga ega astronomik ko'p rangli ZAQ tasvirlarga umume'tirof etilgan usullar asosida ishlov berish; raqamli astronomik ZAQ tasvirlar asosida fotometrik o'lchash usullari; olingan fotometrik ma'lumotlarning tahlili va olingan natijalarni solishtirish usullari.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi kuzatuv, kuzatuv ma'lumotlarga ishlov berish va tahlil qilishning zamonaviy tasdiqlangan usullarini qo'llash bilan, shuningdek IMSNG dasturining boshqa observatoriyalarida kuzatuvlar natijalari bilan taqqoslanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagicha:

Maydanak observatoriyasida yaqin galaktikalarni ZAQ qabul qiluvchilar yordamida kuzatish uslubi ishlab chiqilgan;

Birinchi marta Maydanak observatoriyasida o'tayangi yulduzlarning intensiv ko'p rangli (UBVRI) kuzatuvlari o'tkazildi va ularning fotometrik ravshanlik egri chiziqlari chizilgan;

Ilk bor NGC3938 galaktikasida SN 2017ein o'tayangi yulduz portlashi Maydanak observatoriyasida qayd etilgan;

SN 2017eaw, SN 2017ein, AT 2018cow, SN2017erp, SN 2021hpr, SN 2019ein o'tayangi yulduzlarining fizik parametrlari: nikel massasi, qobiq radiusi, yulduzsimon qobiq, tashlanma (ejecta) massasi, absolyut yulduz kattaligi va rang ko'rsatkichi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: o'tayangi yulduzning fizik parametrlarining olingan qiymatlari ularning nazariy modellarini takomillashtirish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, kuzatuvning ishlab chiqilgan va qo'llanilayotgan usullari, fotometriya, yorqinlik variatsiyalarini o'rganish usullari boshqa o'tayangi yulduzlarni o'rganish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, dissertatsiyada olingan natijalarni galaktikadan tashqi astronomiya bo'yicha universitetning maxsus kurslari dasturlariga kiritish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning yangiligi 1,5 meterli AZT-22 teleskopida olib borilgan kuzatishlar asosida yaqin galaktikalardagi o'tayangi yulduzlar chaqnashlarining o'ziga xos ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bir necha oy davomidagi kuzatuvlar asosida qurilgan ko'p rangli ravshanlik egri chiziqlari o'tayangi yulduzda sodir bo'layotgan fizik hodisalarni o'rganish uchun asos bo'ladi. Shuningdek, dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati olingan kuzatuv qatorlari bilan bevosita bog'liq bo'lgani holda kelajakda shu va shunga o'xshash ob'yektlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalarining amalda qo'llanishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan tahlil usullari o'xshash ob'ektlarni o'rganishda boshqa mualliflar tomonidan qo'llanilgan. Buni Web of Sciences, SCOPUS ma'lumotlar bazasiga kiritilgan va Google scholar ro'yxatiga kiritilgan quyidagi xalqaro jurnallardagi nashrlarimizga havolalar tasdiqlaydi:

SN 2017ein o'tayangi yulduzinining progenitor yulduzi, fizik parametrlarini o'rganish natijalarimiz asosida tayyorlangan - Observations of SN 2017ein reveal shock breakout emission and a massive progenitor star for a type Ic supernova // The Astrophysical Journal 871 (2), 176 maqolamizga – 34 ta iqtibos keltirilgan;

AT 2018cow ob'yektining tez o'zgarishi va bu orqali aniqlangan fizik parametrlar keltirilgan - The Peculiar Transient AT2018cow: A Possible Origin of a Type Ibn/IIn Supernova // The Astrophysical Journal 910 (1), 42 – maqolamizga (Metzger ApJ 2022, Cai va boshq. Universe 2022, Perley va boshq. MNRAS 2021 va boshqalarning) 30 ta iqtibos;

SN2017erp o'tayangi yulduzi qizarishini o'rganish natijalarimizga asoslangan - Red and reddened: ultraviolet through near-infrared observations of Type Ia supernova 2017erp // The Astrophysical Journal 877 (2), 152 – maqolamizga (N Soker, New Astronomy Reviews 2019, JP Blakeslee va boshqalar ApJ 2021, Thorp&Mandel MNRAS 2022 va boshqalarning) 30 ta iqtibos keltirilgan;

SN 2018hti kuzatuv malumotlaridan aniqlangan tashlanma massasi, rang ko'rsatkichlari va nikel massasi natijalari asosidagi - SN 2018hti: a nearby

superluminous supernova discovered in a metal-poor galaxy //Monthly Notices of the Royal Astronomical Society 497 (1), 318-335 – maqolamizga (L Sun, L Xiao, G Li, MNRAS, 2022, CP Gutiérrez va boshqalar. MNRAS 2022, S Gomez va boshqalar ApJ 2022 va boshqalarning maqolalarida) - 19 ta iqtibos;

Xorijiy mualliflar nashrlarida iqtibos keltirilgan ishlar soni 200 dan ortiqni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarini approbatsiya qilish. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti seminarlarida, shuningdek, 10 ta xalqaro va milliy konferensiyalarda muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 17 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, uning 9 tasi yuqori reyting va impakt faktorga ega xalqaro ilmiy jurnallarda chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ish mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, ishning maqsad va vazifalari tavsiflangan, natijalarining yangiligi va ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati qayd etilgan.

Birinchi bobda o‘ta yangi yulduzlarni o‘rganish tarixi, ularning kuzatuvlari statistikasi hamda “Yaqin galaktikalarda o‘ta yangi yulduzlar chaqnashining intensiv kuzatish” (IMSNG) dasturining tavsifi berilgan. Obyektlarni tanlash mezonlari va Maydanak observatoriyasida ishlatiladigan asbob-uskunalar, AZT-22 teleskopi va ishlatilgan ZAQ qabul qiluvchilarning qisqacha tavsiflari keltirilgan. O‘tayangi yulduzlarning tasnifi va modellari qisqacha sharhi bayon qilingan. IMSNG dasturi doirasida monitoring uchun galaktikalarni tanlashds quyidagi mezonlar qabul qilingan:

1. $M_{\text{NUV}} < -18,4$ AB mag;
2. Masofa $D < 50$ Mpc;
3. Galaktik kenglik $b > 20$ daraja.


Birinchi mezon yulduz hosil bo‘lish tezligi yuqori bo‘lgan galaktikalarda o‘tayangi yulduzlar (O‘Y) ko‘proq tarqalganligi va yaqin ultrabinafsha diapazonidagi galaktikaning yorqinligi – NUV esa yulduz hosil bo‘lish tezligining yaxshi ko‘rsatkichi ekanligi bilan belgilanadi. $M_{\text{NUV}} < -18,4$ AB bo‘lgan galaktikalarni tanlash o‘rtacha o‘tayangi yulduz chastotasi yiliga taxminan 0,06 ta o‘tayangi yulduz portlashini kuzatishga imkon beradi, bu o‘rtacha o‘tayangi yulduz portlash chastotasidan qariyb olti barobar yuqori. Ya’ni zamonaviy statistika o‘rtacha o‘tayangi yulduz paydo bo‘lish chastotasi yuz yilda 1 ta o‘tayangi yulduzga to‘g‘ri keladi. Bizning mezonlar bo‘yicha tanlab olingan galaktikalarda bu ko‘rsatkich yuz yilda 6 ta o‘tayangi yulduzlarning kuzatish imkonini beradi. 2014-2022- yillardagi IMSNG loyihasi doirasida kuzatilgan o‘tayangi yulduzlar

statistikasi yiliga 0.054 tani tashkil etmoqda, bu biz taxmin qilgan (yiliga 0.06 ta) ko'rsatgichga juda yaqin.

Ikkinchi mezon - 50 Mpc dan yaqinroq D masofada joylashgan galaktikalarni tanlash, bu kichik nasl-nasab yulduzlarining portlashlari natijasida kelib chiqqan o'tayangi yulduzlarni aniqlash imkonini beradi.

Uchunchi mezon sifatifa Galaktika kenglamasi $b > 20$ gradusdan katta bo'lgan galaktikalarni tanlash bo'lib, bu bizning galaktikamiz markazining yuqori yorqinligi halal berishi mumkin bo'lgan sohasidan qochish maqsadida qabul qilingan.

Ushbu mezonlarga asoslanib, UV atlasining Galaxy Evolution Explorer (GALEX, Gil de Paz va boshq. (2007)) va Bai va boshq. (2015)) tomonidan o'rganilgan galaktikalardan IMSNG dasturi doirasida yaqin galaktikalarni monitoring qilish uchun 60 ta galaktika tanlab olingan (1-rasm).



1-rasm. Bai va boshqalar tomonidan o'rganilgan galaktikalar. Uzuq chiziqli to'rtburchak ichidagi kvadratlar bilan IMSNG dasturi kriteriylari bilan tanlab olingan galaktikalar belgilangan.

Ikkinchi bob o'tayangi yulduzlarning fotometrik va spektral kuzatuv ma'lumotlariga ishlov berish usullari tavsifiga bag'ishlangan. Bunda o'tayangi yulduzlarning ZAQ tasvirlariga ishlov berishning asosiy bosqichlari berilgan: ma'lumotlarni kalibrlash, NYF (Nuqtaning yoyilish funksiyasi) fotometriya orqali ravshanlik egri chiziqlarini qurish keltirilgan.


ZAQ tasvirlarga birlamchi ishlov berish astronomik raqamli tasvirlar bilan ishlashning muhim qismlaridan biridir. Kuzatuvlar davomida olingan astronomik ZAQ tasvirlarga birlamchi ishlov berish quyidagi standart bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- bays tuzatish - ingliz tilidagi adabiyotlarda "bias" deb ataladi va tasvir nolinci sathini siljishini hisobga olish uchun foydalaniladi;
- qorong'ulik tokiga tuzatish, ingliz tilidagi adabiyotlarda "dark" - dark deb ataladi. Dark tasvir ekspozitsiyasi o'rganilayotgan ob'yektlar kuzatilgan

ekspozitsiyalari bir xil olinadi va ZAQ da hosil bo‘ladigan qo‘shimcha shovqinlarni tozalash uchun foydalaniladi.

- ZAQ kameraning notekis sezgirligini (“flat fielding” - flat) tuzatish. Flat tasvirlarni olishdagi yorug‘lik filtrlari o‘rganilayotgan obyektlarni kuzatishda foydalanilgan yorug‘lik filtrlari bilan aynan bir xil bo‘lishi talab etiladi.

Birlamchi ishlov berishdan so‘ng (2-rasm), NYF fotometriya IRAF/DIGIPHOT/DAOPHOT paketi yordamida amalga oshirildi. Nuqtaning yoyilish funksiyasi (ing.: PSF) - atmosfera hodisalari (masalan, turbulentlik) tufayli diffraksiya bilan cheklangan Eiri disk o‘rniga keng Gauss profilini oladigan nuqta manbai bilan bog‘liq berilgan optik tizimning tuzatish funktsiyasi. O‘rganilayotgan ob‘yektning ravshanlik profili hajmli integral bilan proportsionaldir. Nuqtaning yoyilish funksiyasi har bir tasvirda ko‘rinadigan 20-50 tacha yorqin yulduz profillarini o‘rtachasi hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi, buning uchun IRAF 6 ta analitik funktsiyadan eng mosini tanlaydi.



2-rasm. Maidanak observatoriyasining Azt-22 teleskopida olingan NGC6946 galaktikasining birlamchi ishlov berilishidan oldingi va keyingi tasviri.

Barcha spektr tasvirlari ham bias, dark, flat tuzatishlarini va kosmik nurlarni olib tashlashni o‘z ichiga olgan standart IRAF bosqichlari yordamida qayta ishlandi. Kuzatish kechasida olingan Fe/Ar va Fe/Ne yoy lampalar spektrlari –spektrlarning to‘lqin uzunligini kalibrlash uchun, o‘tayangi yulduz bilan bir kechada va bir xil havo massalarida kuzatilgan standart yulduzlar esa spektral oqimni kalibrlash uchun ishlatilgan. Spektrlar o‘rtacha yutilish egri chiziqlari yordamida oqimni kalibrlash vaqtida doimiy atmosfera yutilishi uchun qo‘shimcha tuzatildi. Olingan spektrda ma‘lumotlarni qayta ishlash artefakti bo‘lgan bir nechta tor yutilish chiziqlari mavjud. Ma‘lumotlarga ishlov berish dasturiy ta‘minoti eng past oqim darajasi bilan birlashtirib fonni aniqlaganligi sababli, fon albatta galaktikaning ba‘zi xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, spektrlar galaktikaning boshqa zaif qismlaridan emissiya chiziqlarini olib tashlash natijasida yuzaga keladigan ba‘zi noto‘g‘ri yutilish chiziqlarini ko‘rsatadi. Ushbu soxta chiziqlar qo‘lda spektrdan olib tashlanadi va tozalanadi.

Uchinchi bob to‘rt paragrafdan iborat bo‘lib, I tipdagi o‘tayangi yulduzlarni o‘rganish natijalariga bag‘ishlangan:

“ **o‘tayangi yulduz SN 2019ein: Fotometrik va spektral kuzatuvlari, hamda SN 2019ein kuzatuv natijalarini tahlili**” birinchi va ikkinchi paragraflarda SN 2019ein kuzatuvlari va tahlillari natijalari, ravshanlik egri chiziqlari va SN 2019einning fotometrik xususiyatlari keltirilgan. SN 2019ein ning baholangan fizik parametrlari muhokama qilingan.

SN 2019einning ko‘p rangli ravshanlik egri chiziqlari 3-rasmda ko‘rsatilgan va *B* bandidagi maksimal ravshanlikdan ikki hafta oldingi va keyingi umumiy 80 kundan ko‘proq vaqtdagi fazasini qamrab olgan. Yorqinlik egri chizig‘ining umumiy shakli normal SN Ia tipiga mos bo‘lib, I va R diapazonlarida ikkinchi darajali cho‘qqi bilan tavsiflanadi.


SN 2019ein ning *UBVg* va *RrIi* filtrlarda olingan ravshanlik egri chiziqlarini qiyosiy tahlili amalga oshirildi va ba‘zi yaxshi kuzatilgan Ia tipidagi o‘tayangi yulduzlar xususiyatlari taqqoslandi. Bunda taqqoslash uchun uchta yuqori tezlikdagi (HV) o‘tayangi yulduzlar: 2001br ($\Delta m_{15}(B) = 1.35 \pm 0.05$ yulduz kattaligida), SN 2004ef ($\Delta m_{15}(B) = 1.38 \pm 0.05$ yulduz kattaligida), SN 2005am ($\Delta m_{15}(B) = 1.45 \pm 0.07$ yulduz kattaligida) va ravshanligining maksimumi yaqinida xuddi shunday tezlikli HV – ob‘yektlar – SN 2002bo ($\Delta m_{15}(B) = 1.13$ yulduz kattaligida) va SN 2009ig ($\Delta m_{15}(B) = 0.89$ yulduz kattaligida) tanlab olindi. Shuningdek, normal tezlikli (NV – Normal velocity) Ia tipidagi ikkita, ya’ni SN 2004eo ($\Delta m_{15}(B) = 1.46$ yulduz kattaligida) va SN 2011f ($\Delta m_{15}(B) = 1.18$ yulduz kattaligida) o‘tayangi yulduzlari ham taqqoslashlarga kiritilgan.

^{56}Ni ning massasini va bolometrik yorqinlik egri chizig‘ini olish uchun biz Li va boshqalar (2019) tomonidan taklif qilingan bosqichlar asosida energiyaning spektral taqsimotini va o‘z navbatida *UuBVgRrIi* –filtrlardagi fotometrik ma’lumotlari asosida bolometrik yorqinlik egri chizig‘ini olish uchun SNooPy2 dasturiy taminotidan foydalandik. Ko‘p rangli fotometriyadan foydalangan holda SN 2019ein uchun maksimal bolometrik yorqinlik $L \approx 7 \times 10^{42}$ erg/s ekanligi aniqlandi. Yorqinlikni ko‘tarilish vaqtini $t_{\text{rise}} = 16.0$ kun deb olib, portlash paytida sintezlangan ^{56}Ni massasini eng mos Arnett modeli asosida $M_{\text{Ni}} = (0.27 \pm 0.04) M_{\odot}$ va turli massali WD (oq mitti, keyingi o‘rinlarda WD)larni ikki marta detonatsiya modeli egri chiziqlari bilan baholadik.

SN 2019ein o‘tayangi yulduzining *B* filtrdagi absolyut yulduz kattaligi $M(B) = -18.71 \pm 0.15$ ga, maksimum yorqinlikdan pasayish tezligi $\Delta m_{15}(B) = 1.35 \pm 0.01$ teng ekanligi aniqlandi. Erta bosqich yorug‘lik egri chizig‘iga mos kelish uchun “olovli shar” modelidan foydalanib portlash vaqti $t_0 = 58603.22$ MJD ga teng deb baholandi va u maksimal yorqinlikka erishish vaqti ~ 16.0 kun bo‘lishini ko‘rsatdi.

SN 2019ein uchun energiya tahlili sintezlangan ^{56}Ni massasi va tashlash (ejecta) tezligi asosida amalga oshirildi. Bu uning ajdodi WD massasiga qat’iy cheklovlar qo‘ydi. Taxmin qilingan yuqori chegara ($M \leq 1.22 M_{\odot}$) Chandrasekhar massa chegarasidan ancha past, hatto tashlash tezligini ($v_{\text{ej}} = 10500$ km/s) yorug‘lik maksimumidan bir necha hafta o‘tgach o‘lchangan Si II tezligidan ($\sim 11\,600$ km/s) ancha past bo‘lsa ham. Bizning taxminimizcha, SN 2019ein, ehtimol,

subchandrasekhar WD ning assimetrik portlashi natijasi bo'lgan va tashlanmalar (ejecta) bizga nisbatan yuqori tezlikka ega bo'lgan yo'nalishda qaralgan.




3-rasm. SN 2019ein ning barcha foydalanilgan ma'lumotlar asosidagi ravshanlik egri chiziqlari. Uzlaksiz chiziqlar SALT2 dasturi tomonidan moslashtirish natijalari. X o'qi *B* dagi maksimal yorqinlikka ega 2019-yil 16.36 may kungi nisbatan kunlar sonini ko'rsatadi.

Uchinchi va to'rtinchi paragraflarda “o'tayangi yulduz SN 2017ein: Fotometriya, spektral kuzatishlar, kuzatuv natijalari tahlili va SN 2017einining modellash natijalari taqdim etilgan. Shuningdek, o'tayangi yulduz SN 2017einining hosil qilingan bolometrik yorqinlik egri chiziqlari va fizik parametrlar baholashlari keltirilgan.

Maksimal yorqinligi atrofidagi ma'lumotlarga polinom yaqinlashuvini qo'llash orqali, B filtrdagi SN 2017einining maksimal yorqinligi $MJD=57\,909.86$ da $m_B(\text{peak})=15.91 \pm 0.04$ yulduz kattaligiga va V filtrda maksimal yorqinligi esa bundan ~ 3.6 kundan so'ng $m_V(\text{peak})=15.20 \pm 0.02$ yulduz kattaligiga teng bo'lganligi aniqlandi (4-rasm). Bu SN 2019ein o'tayangi yulduzining rang ko'rsatkichi $B_{\text{max}}-V_{\text{max}}=0.71 \pm 0.05$ yulduz kattaligiga teng ekanligini va bu odatiy SNe Ic rang ko'rsatkichi qiymatga nisbatan ancha qizilroq bo'lganini ko'rsatdi. Somon yo'li (Schlafly & Finkbeiner 2011) tufayli bir oz qizarish $E(B-V)_{\text{MW}}=0.019$ ekanligini hisobga olsak va normal SN Ic uchun maksimal yorqinlikdagi odatiy rang ko'rsatkichi $B-V=0.4$ yulduz kattaligiga (Drout va boshq. 2011) teng ekanligidan SN 2017einda kuzatilgan qizil rang ko'rsatkich ona galaktika (родительской галактики)si tufayli kuchli qizarishga uchraganligini ko'rsatadi.

Biz, shuningdek, SN 2017ein uchun B filtrda 1.33 ± 0.07 va V filtrda 0.93 ± 0.04 magnitudali maksimal yorqinlikdan keyin pasayish tezligi Δm_{15} ni ham o'lchadik. Ushbu qiymatlar 2017 yilda kuzatilgan o'tayangi yulduz SN 2007gr


($\Delta m_{15}(B)=1.31$, Chen va boshq., 2014) uchun o'lgan qiymatlarga deyarli mos keladi.



4-rasm. SN 2017einning BVRI filtrlarda olingan ravshanlik egri chiziqlari. Vertikal uzuq-uzuq yashil chiziq V filtrdagi maksimal yorqinlikni ko'rsatadi. Shuningdek SN 2007gr yorqinlik egri chiziqlari ham keltirilgan(Chen va b. 2014).

O'tayangi yulduzning fizik parametrlari bo'yicha baholashlarni olish uchun biz fotosferik faza uchun Arnett (1982) modelidan ($t < 30$ kun) va tumanlik fazasi ($t > 60$ kun) uchun Sutherland & Wheeler modelidan (1984) foydalandik. Shunga o'xshash yondashuv SN2003jd o'tayangi yulduziga Valenti va boshq. (2008) tomonidan qo'llanilgan. Biroq, ularning ishida har bir faza uchun modellar alohida qo'llanilgan. Bizning holatda ikkala faza uchun bir vaqtning o'zida qo'llanilgan.

Arnettning taklifidan asosiy farq shundaki, energiya ajralishda ^{56}Ni ham, ^{56}Co ham hisobga olinadi va bu metod Valenti va boshqalar (2008) tomonidan taklif qilingan.



5-Rasm. SN 2017einning bolometrik yorqinlik egri chizig'i.

Ravshanlik egri chizig'ining kechki bosqichlarida (tumanlik fazasi) energiya chiqishi radioaktiv parchalanish $^{56}\text{Ni} \rightarrow ^{56}\text{Co} \rightarrow ^{56}\text{Fe}$ (Sutherland & Wheeler 1984) orqali amalga oshiriladi. Ni va Co ning parchalanishidan gamma nurlanishi, shuningdek, elektron-pozitron annigilyatsiyasidagi gamma nurlanishi va

pozitronlarning kinetik energiyasi hisoblanadi. Hosil bo'lgan energiya taqsimlanishi optik kuzatuvlarda olingan yorqinlik egri chiziqlarida ko'rinadi. Batafsil tushunish uchun Sutherland & Wheeler va Valenti va boshq. (2008) ilovasiga yuzlanish kerak.

Moslashtirish natijasida olingan baholarga ko'ra, SN 2017eawning $M_{Ni}=0.13M_{\odot}$, $M_{ej}=1.246 M_{\odot}$ va $E_k = 1.641 \cdot 10^{51}$ erg ga teng bo'ldi.


Kuzatuv ma'lumotlari bilan eng yaxshi mos keladigan bolometrik yorqinlik egri chizig'i 5-rasmda ko'rsatilgan.

“II tip o'tayangi yulduz tadqiqotlari” deb nomlangan to'rtinchi bobda kuzatuvlarimiz asosida II tip o'tayangi yulduzlarni tadqiqot natijalari keltirilgan. Bob 3 ta paragrafdan iborat:

Birinchi paragrafda NGC 6946 galaktikasida kuzatilgan **II-P tipidagi SN 2017eaw o'tayangi yulduzining kuzatuvlar asosida olingan ravshanlik egri chiziqlari** va fotometrik xususiyatlari keltirilgan.

SN 2017eaw o'tayangi yulduzining tahlili asosida kuzatuvlarning kechki bosqichlarda yorug'lik egri chizig'ining tabiati har xil ekanligi aniqlandi: SNe 1987A, 2004et, 2017eaw uchun chaqnashdan taxminan 300 kun o'tgandagi fazada yorug'lik pasayishi sezilarli tezlashishi kuzatiladi, SN 2012ew uchun esa bu ancha zaifroq. 700 kunlik fazadan keyin SNe 2004et, 2017eaw va, ehtimol, 2012aw yorqinlikning pasayish tezligida ancha keskin sekinlashuvni namoyon etdi, SN 1987A uchun esa bu vaqtda yorqinlikning pasayish tezligi o'zgarmagan. Agar energiya manbai ^{56}Co gamma-kvantlarining to'liq termalizatsiyasi bilan parchalanishi bo'lsa, yorqinlikning bunday pasayish tezligi kutilishi kerak. Chiziqli segmentning boshida, ko'rsatilgan barcha oylar uchun yorqinlikning pasayishi kutilganiga yaqin tezlik kuzatilgan. Yorqinlik pasayishining tezlashishiga qobiqdan chiqadigan gamma kvantlar ulushining ortishi sabab bo'ladi. Keskin sekinlashuv kengayuvchi qobiqning yulduz atrofidagi moddalar bilan o'zaro ta'siri bilan izohlanadi.

SN 2017eaw va bir xil uchta SN II-P larning rang egri chiziqlari qiyoslash natijalari 4-rasmda ko'rsatilgan. Tsvetkov va boshqalarning (2018) taxminlariga ko'ra, NGC 6946 galaktikasida SN 2017eaw nurining yutilishi sezalarsiz va barcha yutilish bizning Galaktikada sodir bo'ladi, shuning uchun $E(B-V) = 0.30$ bahosi berilgan. Bu taxmin Van Dik va boshqalar (2019) tomonidan tasdiqlangan, yani ular SN 2017eaw spektrida NGC6946 da paydo bo'ladigan yulduzlararo yutilish chiziqlari haqida hech qanday belgi topmadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, 6-rasmda SN 2017eaw ning kuzatilgan ranglari yutilishlarga tuzatishsiz ko'rsatilgan. Shuningdek xuddi shu galaktikada paydo bo'lgan SN 2004et o'tayangi yulduzi uchun ham kuzatilgan ranglar keltirilgan. Solishtirish bu ikki o'tayangi yulduz uchun deyarli bir xil qizarishni tasdiqladi. SNe 1987A va 2012aw uchun rang egri chiziqlarida yutilish mos ravishda $E(B-V) = 0.16; 0.17$ olingan, hamda SN 2017eaw ning ortiqcha rangini ko'rsatish uchun siljirilgan. Dastlabki bosqichda SN 1987A rang egri chizig'i odatiy SNe II-P larning rang egri chiziqlaridan juda farq qiladi, ammo chiziqli “dum”ga yetgandan so'ng, farq kamayadi. Egri chiziqlarni taqqoslash SN 2017eaw uchun biz qabul qilgan yutilish qiymatining to'g'riligini tasdiqladi.




6-Rasm. SNe 2017eaw rang egri chiziqlari (1) va SNe II tipdagi 1987A (2), 2004et (3) va 2012aw (4) o‘tayangi yulduzlar rang egri chiziqlari bilan solishtirilishi.

Ikkinchi “**AT 2018cow: Ibn/II n turi o‘tayangi yulduz?**” nomli paragrafda AT 2018cowning fotometrik va spektrometrik tadqiqot natijalari keltirilgan.

Galaktikadan tashqari transient AT2018cow (ATLAS18qqn) yorqinlik egri chiziqlarining g‘ayrioddiy hatti-harakatlari va spektral evolyutsiyasi tufayli juda ko‘p e‘tiborni tortdi. Bu obyekt 16-iyun 2018-yilda ATLAS tomonidan 14.76 ± 0.10 yulduz kattaligi bilan aniqlangan (Smartt va boshq. 2018). O‘tayangi yulduz CGCG 137-068 galaktikasi ($z=0.0141$, $DL=63$ Mpc) markazidan uzoqda joylashgan. Ushbu masofa AT2018cow ochilganda I tipdagi o‘tayangi yulduz (SNe Ia) chaqnashidagi kabi yorqin chaqnash aniqlandi. Maksimal yulduz kattaligi <-20 mag bilan 3 kundan kamroq vaqt bilan yorqinlikning tez ko‘tarilishi aniqlandi. Fotosferaning o‘lchangan harorati maksimal yorqinligi yaqinida $\sim 30\,000$ K ni tashkil etdi va u ochilganidan keyin ~ 60 kun davomida $\sim 15\,000$ K yuqori haroratni saqladi (Prentice va boshq. 2018; Perley va boshq., 2019). Bu xususiyatlarning barchasi AT2018cow-ni FBOT (fastrising blue optical transients - tezkor ko‘k optik tranzient) ga kiritish mumkinligini ko‘rsatadi.

Maydanak observatoriyasi va IMSNG dasturidagi observatoriyalarning kuzatuv ma‘lumotlari asosida olingan ravshanlik egri chiziqlari 7-rasmda ko‘rsatilgan va bunda bizning ma‘lumotlarimiz umumiy ma‘lumotlarning 70 foizini tashkil etadi. Tahlillar AT2018cow VRI filtrlarda ~ 58287.0 MJD da maksimal yorqinlikka erishganini ko‘rsatadi. Kuzatuvlarda ko‘rinmagan oxirgi ma‘lumot g filtrda 58284.13 MJD da olingan (Prentice va boshq. 2018), shuning uchun AT2018cow maksimal yorqinlikka erishish vaqti 2.9 kundan kam. Agar birinchi aniqlanishi va bu ob‘yekt oxirgi ko‘rinmagan ma‘lumotlari medianasini olsak yuqori yorqinlikka erishish vaqti sifatida ko‘tarilish vaqti ~ 2.2 kun bo‘ladi. Biz AT 2018cowni portlash vaqtini $MJD=58\,284.79 \pm 0.66$ o‘rganish davomida aniqladik. Ushbu maksimal yorqinlikka ko‘tarilish vaqti SNe bilan solishtirganda juda qisqa bo‘lib, odatda bunday ko‘tarilish vaqti 10 kundan ko‘proq bo‘ladi. Maksimal yorqinlikdan so‘ng yorqinlik egri chiziqlari V, R va I filtrlarda 10 kun davomida kunlik mos ravishda 0.33, 0.27 va 0.22 yulduz kattaligi tezligida pasaydi.



7-rasm. AT 2018cowning turli teleskoplardan olingan ravshanlik egri chiziqlari.


Shuni ta'kidlash kerakki, AT 2018cowda kuzatilgan yuqori yorqinlik va tez evolyutsiya o'tayangi yulduzlarning Ibn tipiga mos keladi. Bizning kuzatishlarimiz davomida AT2018cow juda ko'k rangni saqladi (ya'ni, $B-V \sim -0.1$ mag; 8-rasm). Tahlillarda AT2018cow uchun galaktik yutilishini $E(B-V)=0.08$ (Schlafly & Finkbeiner 2011) deb hisobga oldik va ona galaktikasining yutilishiga e'tibor bermaymiz. Shuningdek, Perley va boshqalar (2019) AT2018cow fotosferasining harorati maksimal yorqinlik yaqinida ~ 30 ming K ga yetishini va undan ~ 50 kun o'tgach ham ~ 14 ming K ga yetishini ko'rsatdi. Bu shu paytgacha kuzatilgan boshqa optik tranzientlarda kuzatilmagan.

AT2018cow spektrlari kashf etilgandan keyingi dastlabki ~ 10 kun ichida noaniq ko'k kontinium bilan tavsiflandi va ba'zi keng emissiya xususiyatlari keyinroq paydo bo'ldi, buni ona galaktika yutilishning ehtimoliy tasiri bilan bog'liq deb qarash mumkin. Dastlabki 10 kun ichida spektrlar 9-rasmda ko'rsatilganidek, $5000 \text{ \AA}$ atrofida keng chiziq (mintaqa) bilan tavsiflanadi. Keyinchalik, ko'plab tor va kuchli emissiya chiziqlari bilan qoplangan ko'plab keng emissiya chiziqlari paydo bo'ladi. Qizil oxirida ortiqcha oqim kuzatildi, bu, ehtimol, nisbatan kechki fazalarda chang tashlanishi bilan bog'liq. Fox & Smith (2019) taklif qilganidek, AT2018cow spektri SN Ibn va IIn kabi yulduz yaqinidagi ta'sir (CSI) alomatlarini ko'rsatishi mumkin, CSI ning tipik xususiyatlari esa H va He tor emissiya liniyalari hisoblanadi.

AT2018cow transientini o'tayangi yulduz sifatida qarash tabiiy. Fox & Smith (2019) AT2018cow va ba'zi SNe Ibn va IIn o'rtasidagi o'xshashliklarni topdi. Fikrimizcha, AT2018cow SNe Ibn va IIn lar bilan o'zaro muvofiqlik belgilarini ko'rsatsa ham uning spektral evolyutsiyasi SNe Ibn va IIn evolyutsiyasidan juda farq qiladi. AT2018cow barcha fazalarda zaifroq chiziqlarga ega bo'lganligi sababli, uning spektral xarakteristikalar boshqa o'zaro ta'sir qiluvchi o'tayangi yulduzlardan farq qiladi.

AT2018cow ning keng emissiya xususiyatlari oddiy SNe II spektral xususiyatlaridan farq qiladi. Yutish xususiyatlarining yo'qligi AT2018cow ni SNe IIP/IIL dan ko'ra SNe IIn/Ibn ga o'xshash bo'lishi mumkinligini anglatadi, biroq

AT2018cow ning keng emissiya komponentasining tezligi ($v \sim 10000$ km/s) an'anaviy SNe Ibn/IIn o'tayangi yulduzlardagi tezlikdan ancha yuqori.




8-rasm. Yuqorida: AT 2018cowning B-V rang o'zgarishi evolyutsiyasi boshqa yaxshi kuzatilgan o'tayangi yulduzlar rang o'zgarishi bilan solishtirilgan. Quyida: AT 2018cowning temperaturasi bizning kuzatuvlarimiz davomida o'zgarishi evolyutsiyasi.


To'rtinchi bobning uchinchi paragrafda **AT2018cow obyektining modellashtirish** natijalari keltirilgan. AT2018cowning fizik talqini hali ham muhokama qilinmoqda, garchi uning fizik kelib chiqishini aniqlashga urinayotgan bir nechta versiyalar mavjud. AT 2018 cowning bolometrik yorqinlik egri chizig'ini olishda bir nechta modellardan foydalanildi (10-rasm).

Ushbu paragrafda pekulyar tranzient AT2018cow ning fotometrik va spektroskopik kuzatuvlarimizni taqdim etilgan. Ko'prangli fotometriya maksimal yorqinlikka erishish nuqtasidan taxminan 70 kungacha va spektral kuzatuvlar kashfiyotdan keyin 5 kundan taxminan 50 kungacha bo'lgan davrdagi ma'lumotlarini qamrab olgan.

Yorqinlikni tez ko'tarilish ($t_r < 2.9$ kun), porlashning maksimali ($M_{V,peak} \sim -20.8$ yulduz kattaligi) va maksimumdan keyingi tez pasayish AT2018cow ni boshqa har qanday optik tranziyentlardan farqlaydi. Diqqat bilan tahlil qilganimizdan so'ng, ravshanlik egri chiziqlari va rang evolyutsiyasi ba'zi SNe Ibn bilan kuchli o'xshashligini aniqladik. Spektral evolyutsiya va chiziq identifikatsiyalarini batafsil tahlil qilishda biz AT2018cow SNe IIn va Ibn kabi o'zaro ta'sir qiluvchi SNega o'xshash xususiyatlarni namoyish etishini aniqladik.



9-rasm. Dastlabki 10 kun ichida AT2018cow ning normalashtirilgan spektri. Soyali joylar tellur chiziqlar maydonini belgilaydi.



10-rasm. AT 2018cowning bir nechta modellar asosida olingan bolometrik egri chiziqlari.

CSI SN talqiniga asoslanib, biz bolometrik yorug‘lik egri chiziqlarimiz CSI+RD modellariga mos kelishini aniqladik (10-rasm). Zich bir xil CSM qobig‘i bilan CSI+RD modeli eng mos parametrlari $M_{ej} \sim 3.16 M_{\odot}$, $M_{CSM} \sim 0.04 M_{\odot}$ va $M_{Ni} \sim 0.23 M_{\odot}$ bilan ishonchli moslikni olishi mumkin. Bunday CSM qobig‘i yadroning qulashi oldidan LBV ning eruptiv ommaviy chiqishi natijasida yoki qo‘shaloq tizimlarda umumiy qobiqning chiqarilishi sababli hosil bo‘lishi mumkin. $Z \approx Z_{\odot}$ da ajdod yulduz PPI (Pulsational Pair Instability – pulsatsiyanuvchi juftlik beqarorligi) ga duchor bo‘lish ehtimoli kamroq. Shu sababli, AT2018cow-ning ajdodi, ehtimol, qo‘shaloq tizimdagi nisbatan massiv ulkan yulduz bo‘lgan degan xulosaga keldik.

XULOSA

“Yaqin galaktikalarda o‘tayangi yulduz chaqnashlarini monitoring qilish”
ishiga quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. IRAF va Python paketlari yordami o‘rganilayotgan ob‘yektlarning fotometrik kuzatuv ma’lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish pipelinelari ishlab chiqildi.
2. SN 2017ein ajdodi hisoblangan xarakteristikalariga ko‘ra: absolyut yulduz kattaligi $M_V = -8.00^m \pm 0.34$ va $M_I = -7.53^m \pm 0.35$, samarali temperaturasi $\sim 70\,800 - 15\,900\text{ K}$, yorqinligi $6.1 \leq \log(L/L_\odot) \leq 7.4$, radiusi $\sim 6-14 R_\odot$ bo‘lgan WR tipidagi yulduz bo‘lib, u H/He qobig‘ining katta qismini qulashdan oldin yo‘qotgan (tashlama massasi $\sim 1 M_\odot$) va $\sim 0.13 M_\odot$ massali ^{56}Ni ni sintez qilgan. Bunda yulduz qobig‘ining radiusi $8 \pm 4 R_\odot$ va massasi $\sim 0.02 M_\odot$ bo‘lgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, SN 2017ein, ehtimol, yulduz qobig‘idan zarba to‘lqinining sovishi belgilarini ko‘rsatadigan birinchi oddiy SN Ic o‘tayangi yulduz.
3. SN 2019einning quyidagi fizik parametrlari aniqlanadi: maksimal absolyut yulduz kattaligi $M(B) = -18.71^m \pm 0.15$, maksimal yorqinlikdan keyin pasayish darajasi $\Delta m_{15}(B) = 1.35^m \pm 0.01$, portlash vaqti $t_0 = 58603.22\text{ MJD}$ va maksimal yorqinlikka ko‘tarilish vaqti 16.0 kun. Uning eng yuqori nurlanishi $L \sim 7 \times 10^{42}\text{ erg/s}$, sintezlangan nikel massasi $M_{\text{Ni}} = (0.27 \pm 0.04) M_\odot$ ga teng. SN 2019ein uchun olingan natijalar shunga o‘xshash maksimal yorqinlikdan keyin pasayish darajasi $\Delta m_{15}(B)$ bilan solishtirilganda boshqa Ia tipidagi o‘tayangi yulduzlarga nisbatan ancha past.
4. SN 2017eaw-ning chaqnashdan keyin ~ 850 kunlik davrgacha olingan ravshanlik va rang egri chiziqlari tahlili asosida ravshanlik egri chizig‘i “dum” bosqichida yorug‘likning pasayish tezligi aniqlanadi, bunda portlashdan keyin ~ 500 kun o‘tib yorqinlikning pasayishi tezlashishi va ~ 700 kundan keyin yorqinlik pasayishi keskin sekinlashishi tasdiqlandi. Ushbu ob‘yektning ravshanlik va rang egri chiziqlarining shaklidan u o‘tayangi yulduzlarning II-P tipiga xos ekanligi ko‘rsatildi.
5. Pekulyar tranzient AT2018cow ning tez yorqinlashishi $t_r \leq 2.9$ kun va eng yuqori yorqinlik qiymati $M_{V\text{peak}} \sim -20.8^m$ aniqlandi. Cho‘qqidan taxminan 70 kungacha bo‘lgan davrdagi ko‘prangli fotometrik kuzatuv natijalariga ko‘ra yorqinlik cho‘qqisidan keyingi tez pasayishi va $t \sim 10$ va 20 kunlik vaqt momentlarida H I, He I, He II, C III, O I va O III bilan bog‘liq bo‘lgan emissiya chiziqlarining mavjudligi AT2018cow kashfiyotdan keyingi 5 kundan 50 kungacha davrda olingan spektroskopiya kuzatuvlari bilan tasdiqlandi. Ravshanlik egri chiziqlari va rang evolyutsiyasi ba’zi SNe Ibn ga juda o‘xshashligi aniqlandi. Spektral tahlil shuni ko‘rsatdiki, AT2018cow SNe IIn kabi o‘zaro ta’sirlashuvchi SN larga o‘xshash xususiyatlarni namoyish etdi. Bolometrik yorug‘lik egri chiziqlarini CSI+RD modellari bilan taqqoslash AT2018cowning ajdodi katta ehtimol bilan qo‘shaloq tizimdagi kam massali yulduz bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ АСТРОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ
АСТРОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ АН РУЗ**

МИРЗАКУЛОВ ДОВРОНБЕК ОМАТЖОНОВИЧ

**МОНИТОРИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ВСПЫШЕК СВЕРХНОВЫХ
ЗВЕЗД В БЛИЗЛЕЖАЩИХ ГАЛАКТИКАХ**

01.03.01 – Астрономия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-
МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/FM844.

Диссертация выполнена в Астрономическом институте АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (русском, узбекском и короткая аннотация на английском) размещён на веб-странице Научного совета (www.astrin.uz) и Информационного-образовательного портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Эгамбердиев Шухрат Абдуманнапович,
доктор физико-математических наук, академик

Официальные оппоненты:

Аскар Бахтиярович Абдикамалов,
доктор физико-математических наук АИ АН РУз

Цветков Дмитрий Юрьевич,
к.ф.-м.н., МГУ имени М.В. Ломоносова,
Государственный астрономический институт
имени П.К. Штернберга

Ведущая организации:

**Астрофизический институт
имени Фесенкова, Казахстан**

Защита диссертации состоится "29" сеп 2023 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 при Астрономическом институте (Адрес: Астрономическая, 33, 100052, г. Ташкент. Тел.: (+99871) 235-81-02; факс: (+99871) 234-48-67; e-mail: info@astrin.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Астрономическом институте (регистрационный номер _____) по адресу: 100052, г. Ташкент. Астрономическая, 33, Астрономический институт, тел.: (+99871) 235-81-02).

Автореферат диссертации разослан "15" сеп 2023 г.
(Реестр протокола рассылки № 1 от "15" сеп 2023 г.)



Д.Ш. Фазылова
Заместитель председателя Научного совета
по присуждению ученой степени, д.ф.-м.н.

И.А. Ибрагимов
ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученой степени, к.ф.-м.н.

А.Б. Абдикамалов
председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению ученой степени, д.ф.-м.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время изучение процессов, наблюдаемых на ранней стадии вспышки сверхновых звезд, является одной из наиболее актуальных проблем астрофизики. Изучение протозвезд важно для понимания динамики галактик и процессов вторичного звездообразования. Их также можно использовать в качестве стандартных маяков для определения космологических расстояний. Исследование сверхмассивных звезд позволяет более точно оценить расширение Вселенной и существование темной энергии (Riess и др., 1998; Perlmutter и др., 1999). С этой точки зрения большое значение имеет задача проведения качественных мониторинговых наблюдений сверхновых звезд в условиях хорошего астроклимата, а также разработка современных методов анализа наблюдательных данных.

В настоящее время в мире существует несколько проектов исследования сверхновых, таких как Supernova Cosmology Project, Sloan Supernova Survey (SSS), ROTSE (Supernova Verification Project), Palomar Transient Factory (PTF), Pan-Starrs, насчитывающих несколько сотен обнаруженных суперзвезд. Ожидается, что проект LSST, который начнет действовать в 2024 году, увеличит количество таких кандидатов. На основе организации наблюдений за таким количеством объектов необходим постоянный мониторинг для изучения их физических процессов. При проведении непрерывных наблюдений необходимо создать программу организации и оптимизации работы нескольких обсерваторий и телескопов, стандартизировать большой объем ПЗС-данных, получаемых в разных обсерваториях, использовать современные методы анализа данных.

В Узбекистане большое внимание уделяется таким фундаментальным исследованиям как изучение расширения Вселенной, образования и эволюции звезд, что является основой долговременных наблюдений сверхновых звезд и, одной из актуальных проблем астрофизики. Согласно постановлению Президента Республики, Узбекистан № ПФ-6097 от 29.10.2020 года, по ускорению развития перспективных и новых направлений науки, в том числе научных исследований в области астрономии, а также укреплению позиций нашей страны в международных рейтингах, и сотрудничеству с ведущими научными учреждениями мира, поставлена задача развития научного потенциала Узбекистана. Майданакская астрономическая обсерватория (МАО) Института астрономии Академии наук Республики Узбекистан обладает уникальным астроклиматом и удачным расположением в центре Евразийского континента. Благодаря вниманию, уделяемому в нашей Республике фундаментальным исследованиям и своему расположению, МАО позволяет проводить различные астрономические исследования и международные проекты в сотрудничестве с такими странами, как Китай, Корея, Япония, Италия, США и другими астрономическими центрами. В частности, данная исследовательская работа является результатом исследований, проведенных в сотрудничестве с ведущими мировыми

научными школами, Сеульским национальным университетом и Университетом Цинхуа.

